

**PEDAGOGLARNING MOTIVATSION TAYYORLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**Oqilova Kamola Sadullayevna
Samarqand viloyati pedagoglarni
yangi metodikalatga o‘rgatish
milliy markazi “Pedagogika va psixologiya
ta’lim texnologiyalari kafedrasи katta o‘qituvchisi**

Annotasiya. Maqolada o‘qituvchilarning motivotsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish va uning o‘ziga xosliklari yoritilgan, o‘qituvchilarni uzlusiz kasbiy rivojlantirish masalalari, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarda motivasion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish tushunchalari yoritilib berilgan.

Tayanch so’zlar: pedagog, motivatsiya, kompetentlik, rivojlanish, uzlusizlik, motivasion tayyorlik, uzlusizlik, malaka oshirish.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы развития компетентности мотивационной готовности педагогов и ее особенности, вопросы непрерывного профессионального развития педагогов, концепции развития компетентности мотивационной готовности педагогов в процессе профессионального развития.

Ключевые слова: педагог, мотивация, компетентность, развитие, преемственность, мотивационная готовность, преемственность, профессиональное развитие.

Abstract. The article deals with the issues of developing the competence of motivational readiness of teachers and its features, issues of continuous professional development of teachers, the concept of developing the competence of motivational readiness of teachers in the process of professional development.

Key words: teacher, motivation, competence, development, continuity, motivational readiness, continuity, professional development.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning o'zgarishi pedagogik jarayonlarga kompetensiyaviy, tizimli, innovatsion, motivatsion kabi turli yondashuv va texnologiyalarni faol joriy etish bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, umumta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan ijtimoiy burtmaning, davr talablarining amaliy samarasi o'qituvchining kasbiy-pedagogik ijodkorligi, xarakteri va uning rivojlanganligi darajasiga bevosita daxldor. Xalq ta'limi tashkilotlarida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni, ilmiy-metodik ta'minot hamda axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, o'quv faoliyatining komponentlarini tahlil etish asosida uzlusiz kasbiy rivojlanish, kasbiy-pedagogik ijodkorlik muammolariga yechim topish, ta'lim sifatini oshirishni kompleks boshqarish, ta'lim oluvchilarining motivatsion tayyorlik, kognitiv-kreativ kompetentligi(hozirjavoblik, yangiliklarga kirishimlilik, tayyorlik, tolerantlik, moslashuvchanlik, bilish, tushunish, anglash, ijodiy fikrlash, analiz, sintez, mujassamlashtirish qobiliyatlari)ni innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlantirishning yangi metodlari mohiyatini ochib berishda o'qituvchi kasbiga motivatsion yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruratga aylanmoqda.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda motivatsiya xulq-atvorni hamda uning yo'nalganligi, faolligi, ichki ta'sir (turtki) kuchiga egaligini bildiruvchi psixologik sabablar yig'indisi tarzida e'tirof etiladi. Jumladan, J.G.Yo'ldoshev fikricha, o'qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlaridan biri "ularga xos bo'lgan pedagogik faoliyat sababli doimo o'qishga motivatsion tayyorlik"dir. Ko'pincha o'qishga bunday prinsipial tayyorlik ularning pedagogik faoliyatidagi biror vaziyatlar bilan yoki o'z malakasini oshirish, uzlusiz kasbiy rivojlanish imkoniyati to'g'risidagi axborot tufayli dolzarblashadi. Motiv shaxs xulqining moyilligi va uning natijasida amalga oshirayotgan xatti-harakatlarini tushuntiruvchi sababni nazarda tutadi .

Motivlarning o'sib borishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshirilishi E.G'oziyev tomonidan ta'kidlanadi. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib,

mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, keyinchalik yangi qiziqish, ehtiyoj, intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarini o‘zgartiradi . Ya’ni, “shaxsda muqarrar qiyinchiliklar, noqulay vaziyatlar hamda boshqa holatlarni yengib o‘tish, muammolarga yechim topishda bor kuchini sarflab, maqsadga sabr-toqat, sobitqadamlik bilan intilib faol harakatlanishga xohish uyg‘otadigan kuchli, yorqin, ichki motivlar mavjud bo‘lsa, har qanday ko‘zlangan jarayon samaraliroq kechadi va sifatli natijalar beradi”.

Motivlarni faoliyatga kiritib borish, motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishda motivlashtirish muhim ahamiyatga ega. Motivlashtirish ta’lim beruvchi va oluvchilarning faolligini ta’minalash, qiziqishlarini shakllantirish hamda yuksaltirish, takomillashtirib borishning bir necha darajali, murakkab tizimi tariqasida ham e’tirof etiladi. Unda “...ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, e’tiqod, maqsad, orzu-istik, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning tashkil etuvchilari hisoblanadi. Motivlashtirish ma’lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o‘quvchilar faoliyatini psixologik ta’sir ko‘rsatish yo‘llari bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir”.

Demak, motivlashtirish ruhiy omil sifatida pedagoglarning tegishli jarayonlardagi faolligini, harakatlari sababini, kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirishga ichki rag‘batni ifodalaydi. Ya’ni, motivlashtirish pedagogning muayyan ehtiyojini ta’minalash bilan chambarchas bog‘liq. Ehtiyoj esa insonni biror bir faoliyatga undovchi, harakatlantiruvchi va qo‘zg‘atuvchi eng kuchli motivdir (ushbu tushuncha birinchi bobda keng tavsiflangan).

Motivatsion tayyorlik ustida ishlar ekanmiz, uning pedagogik talqinini, ifodalashda motivatsiyaning inson ruhiy holatlarining natijasi ekanligini ta’kidlamasdan, motivatsiya borasidagi psixologik nazariyalarni o‘rganmasdan, o‘qituvchining kasbiy amaliyotiga joriy etish tavsiyalarini ishlab chiqmasdan ishning tub mohiyatini yoritib bo‘lmasligiga ishonchimiz komil bo‘ldi. Ilgari surilayotgan bu g‘oya, shu paytgacha psixologik atama va tushuncha sifatida o‘rganilgan motivatsion tayyorlikni o‘qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishidagi pedagogik asoslarini aniqlashtirish, ijtimoiy buyurtmaga nisbatan motivatsion tayyorlik

kompetentligini rivojlantirishning komponentlari, metodlari, amaliy ishlanmalarini shakllantirishga qaror qilindi. Motivatsiyaga doir nazariyalar birinchi bobda atroflicha yoritilgan bo‘lib, keltirilayotgan tavsif tadqiqotimiz davomida ta’lim jarayonida amaliyotda ularning ayrimlaridan foydalanish usullariga asoslanilgan.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-sod Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-sod.
2. Vaxobov M.M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016 y. – 92 b.
3. Vixanskiy O.S. Naumov A.I. Menedjment: uchebnik -4-ye izd., pererab. I dop. – M.: Ekonomika, 2003. – 528 s.
4. Vozgova Z.V. Metodologicheskiy regulativ razvitiya sistemy nepreryvnogo povышениya kvalifikasii nauchno-pedagogicheskix rabotnikov. – M.: “APK i PRO”, 2010. – 239 s.
5. Sharipov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchisi kompetentligini ta’minlashda ilmiy-metodologik yondashuvlar. /<http://dr-sharipov.com/2014/03/02>.
6. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
7. Pedagogika / V.A.Slastyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov; Pod red. V.A.Slastyonina. – M.: «Akademiya», 2002. – 576 s.
8. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.
9. Elektron resurs: <http://www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm>.